FARG'ONA VILOYATI RISHTON TUMANI HOKIMINING
QARORI

2021 - yil 17 - dekabr 199-11-158-Q/21 Rishton tumani hokimligi

Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta'limga jalb etish maqsadida Rishton tumanida har bir ta'lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to`g`risida

Farg`ona viloyati Rishton tuman Xalq ta'limi bo`limining "Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta'limga jalb etish maqsadida, tumandagi har bir ta'lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to`g`risida"gi murojaatiga ko`ra O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi "Umumiy o`rta ta'lim to`g`risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bob, 39-bandi va Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risidagi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN

1.Rishton tuman Xalq ta'limi bo`limining "Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta'limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta'lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to`g`risida"gi murojaati ma'qullansin.

2. Rishton tuman Xalq ta'limi bo`limi tasarrufidagi har bir ta'lim muassasalariga hudud va mikrohududlarga biriktirish jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. "Rishton haqiqati" gazetasi tahririyati va tuman hokimligi matbuot kotibi mazkur qaror rasmiy e'lon qilinishi va hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o`rinbosari Z.Umarov hamda tuman Xalq ta'limi bo`limi mudiri v.v.b A.Xonqulovlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **С.Солиев**